

BADIIY ASARLARDA KULGI MADANIYATI MASALASI**Xaitov Xamza Axmadovich**

Buxoro davlat Pedagogika institutituti

dotsenti, f.f.f.d(PhD)

Murodova Go‘zalxon Zayniddin qizi

Buxoro davlat Pedagogika institute I bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotiga xalq maydon kulgi madaniyatining ta’siri ilmiy- nazariy tahlil qilingan.

kalit so‘zlar: Lof, latifa, askiya, estetik ta’sir, ma’naviy ozuqa, maydon tomoshalari, urf-odat, rasm-rusm, dramatik unsurlar, axloqiy fazilatlar, badiiy qimmat va hokazo.

Yer yuzida istiqomat qilayotgan barcha xalq va elatlarni yaxlit sistema deb hisoblasak, bu makrosistema tarkibidagi alohida millatlar muayyan belgilari bilan, xususan, tili, adabiyoti, kelib chiqishi, moddiy va ma’naviy madaniyati, maishiy turmush tarzi va psixologiyasi bilan bir-biridan ajralib turadi. Mana shu o‘ziga xos psixologiya, milliy urf-odatlar kulgi madaniyatining turlicha taraqqiyoti, tarixiy genezisi, tamoyillari va milliy adabiyotga badiiy estetik ta’sirini belgilab beradi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim vazifa bo‘lib qoldi. Gap madaniy qadriyatlar, ma’naviy me’ros haqida ketar ekan, ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma’naviy merosni o‘rganish va asrab avaylashga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish zarurligi oydinlashadi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarda bo‘lgani kabi adabiyotshunoslikda ham ,jumladan, askiya,lof, latifa

janrlarining yozma adabiyotga ta'sirini o'rganish masalasida bosib o'tilgan yo'lni kuzatish, erishilgan yutuqlarni saralash, ularni yangicha mafkura, yangi nuqtai nazardan baholash zarurati yuzaga keladi.

Binobarin, zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari syujetida uchraydigan og'zaki qiziqchilik, masxarabozlik, xalq satirasi va yumori, askiya, lof, latifa kabi kulgiga asoslangan folklor janrlariga xos xususiyatlarning ta'sirini o'rganish tadqiqotning vazifasi hisoblanadi."Ayni shu nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqiyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy jarayonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish" tadqiqot maqsadi hisoblanadi. Har bir inson ichki olami, tuyg'ular dunyosidagi ma'naviy quvvat orqali so'z qobig'idagi ma'no sarhadini yangilash va kengaytirishga harakat qiladi. Mana shu ma'naviy quvvat badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyot musiqa san'atiga xos bo'lgan tovush va ohang imkoniyatlaridan ham, rassomlik san'atida qo'llanadigan rang va tasvir usullaridan ham, ilm-fan sohasidagi kuzatish, tanlash, baho berish, tahlil etish, xulosa chiqarish kabi prinsiplardan ham foydalanishi mumkin. Lekin xalqning yurak ohanglariga benihoya mos bo'lgan folklor adabiyoti ta'sirida yozilgan zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari lutfu nazokat beqiyosdir. Dvlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, insoniyatning bolalik qo'shig'idir". Atoqli adib Abdulla Qodiriy nasrda ijtimoiy kulgining turlari haqida gapirar ekan, uning yana bir uslubi- xarakter kulgisi ham mavjudligini ta'kidlagan edi. "Sizni nafratlantirgan masala yoki yaxshi o'z hayotidan, o'z xususiyatidan olib kulgi holiga qo'yishingiz kerak. Ya'ni siz bu kulgilikni yasagan bo'lib ko'ringan bo'lib ko'rinmang, balki o'zi yasalgan bo'lib ko'rinsin. O'z holini o'zi arz qilsin", -deb ta'kidlaydi.¹ Uning bu so'zlari o'zbek adabiyotida kulgi tiplari, kulgili obrazlar yaratish bilan bog'liq. Chunki hajviyot, mutoyiba, kulgi ijtimoiy hayotni aks ettirar ekan, undagi illatlar, salbiy voqea yoki faktlarni oddiy qayd etmaydi, balki uning mohiyatini ochib berishi shart. Bu hodisa badiiy adabiyotda hajvni umumlashtirish,

¹ Qodiriy A. "Yozuvchilarimizg'a". Kichik asarlar. Toshkent. G'afur G'ulom. 1969.b-187.

tipiklashtirish orqali obrazlar, tiplar, hajviy xarakterlar yaratish asosida amalga oshiriladi. Xalq kulgi san'ati ta'siri ostida vujudga kelgan asarlarda yuqoridagi kabi aniq umumlashma va umumlashma- to'qima obrazlar bilan birgalikda badiiy ijodning mukammal unsuri bo'lgan hajviy tiplar ham mavjud: "Qoravoy hamon cho'miladi. Qiztaka ko'zoynakli otinoyining raqamini izlaydi." Kechirasiz, raqamini bering". Ko'zlaridan tashnaligi bilinib turibdi mehr-muhabbatga. Telefonchi telefonini o'padi, silaydi, peshanasiga qo'yganча bir daqiqagina uxlaydi. so'ng yana o'yin va internet dengizigz sho'ng'iydi".¹ Badiiy matndagi "Qoravoy", "Qiztaka", "Telefonchi" kabi hajviy tiplar yuqoridagi obraz turlaridan shu bilan farq qiladiki, unda ma'lum bir sinf, ijtimoiy tabaqa yoki guruh kishilariga tegishli bo'lgan belgilar bilan bir qatorda bu obrazning o'ziga tegishli bo'lgan shaxsiy xususiyatlar ham keng ifoda etiladi. O'quvchining ko'z oldida ham butun bir ijtimoiy tabaqaga mansub xususiyatlarni tashuvchi, ham jonli insonga xos bo'lgan fe'l-atvorli odam obrazi gavdalanadi. Bunda ikki tomon shaxsiy va umumiy sifatlar uyg'unlashgan bo'ladi. Yani umumiylik yakkalik orqali ochiladi. Hajviy tip- xarakter yaratish hiyla murakkab adabiy-ijodiy muammo bo'lib, yozuvchidan hayotni chuqur bilishni, katt mahoratni talab qiladi.

"Meshpolvon odatdagidek maqtanib yuborganini o'zi bilmay qoldi:

-Tashvishlanmang, lo'li xola, biron yil yonimda yursa, suvda baliqni quvib ushlaydigan qip qo'yaman. Ana, Go'ro'g'li boboning chevarasi menga qo'shilib, kam bo'ptimi?"²

Keltirilgan badiiy matndagi "Meshpolvon", "Lo'li xola", "Go'ro'g'li bobo" kabi obrazlar orqali milliy xususiyatlarga xos kulgi tiplari yaratilgan. Kulgi tiplari ijtimoiy tabaqa yoki guruhga mansub bo'lgan ko'p kishilarning fe'l-atvorlarini, odat va turmush kechirish tarzlarini o'rganib, to'plab, ularning xarakterli tomonlarini yig'ib, shuningdek bir obrazgagina xos bo'lgan jonli, individual xususiyatlarini ham topib, uni tiriltirishi va estetik ifodalashi lozim.

¹ Jovliyev J. "Qo'rqma". Roman. Toshkent. Nihol. 2020. B-130.

² Obidjon Anvar. "Yengilmas Meshpolvon". Toshkent. Ziyo nashr. 2019. B-46.

Qadimgi kishilarning ijtimoiy hayotlarini o'rgangan bir qator tarixchi va etnograflarning qayt qilishlaricha, biror urug' yoki qabilaning nomi bo'lgan, o'sha urug' yoki qabilaga mansub bo'lgan shaxsning nomi u mansub bo'lgan urug' yoki qabila nomiga mos bo'lgan, ya'ni etnik guruhga mansub shaxs urug' nomi bilan atalgan. Urug' yoki qabila nomlari esa etnik guruh muqaddas deb singdiruvchi biror hayvon, qush nomidan iborat bo'lgan. Asta-sekin bu an'ana o'zgarib, urug' va qabila a'zosi bo'lgan har bir shaxs alohida ism yoki laqab bilan atala boshlagan. Mana shunday qilib shaxslarning ismlari va laqablari paydo bo'lgan.¹ Ismlar va laqablar o'zbek tili onomastikasining mikroko'lamida chuqur o'rganiladi. Bu onomastik ko'lam deb ham yuritiladi. Antroponimik tarkibga kiruvchi laqab ta'rifi quyidagicha ifodalanadi: laqab - shaxsga uning atrofida gilar tomonidan beriladigan, shaxsning xarakter xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan, shaxs nomi bilan birga qo'llaniladigan ikkinchi nom. Bundan tashqari laqab, ism va familiyalar antroponimiyaning "qo'shimcha nominativ kategoriyasi" deb ko'rsatish mumkin. "Laqab odamning turli xususiyatlarini ifoda etadigan nomdir".

-Tashvishlanmang, lo'li xola, biron yil yonimda yursa, suvda baliqni quvib ushlaydigan qip qo'yaman. Ana, Go'ro'g'li boboning chevarasi menga qo'shilib kam bo'ptimi?!

"Laqab shaxs hayotining turli davrlarida unga odamlar tomonidan odamning turli xususiyatlari va sifatiga ishora qilib berilgan so'zdir. Shaxs mana shu nom bilan bir doira kishilarga ma'lum bo'ladi va farqlanadi". M.N.Chobanov ism, familiya ota ismini asosiy, laqab va taxallusni qo'shimcha nomlar kategoriyasiga kiritadi va yozadi: "Laqab - bu norasmiy qo'shimcha nom bo'lib, jamiyatda bir kishini ikkinchisidan farqlashga xizmat qiladi".² Laqablar ma'lum vaqt o'tganidan keyin shaxsning fe'l-atvoriga, ko'rinishiga, qiladigan kasb-koriga, hunariga, odamlar oldida o'zini tutishiga va ijobiy va salbiy xususiyatlariga qarab boshqa shaxslar tomonidan qo'yiladi.

¹ Э.А.Бегматов. Узбек тили антропонимикаси. Узбекистан Республикаси Фанлар академияси, "Фан" нашриёти. - Тошкент. 2013.б-35

² Chobanov M.N.Osnovi azerbaydjanskoy antroponimiki. Baku. 1984.б-28.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI(REFERENCES)

1. Qodiriy A. "Yozuvchilarimizg'a". Kichik asarlar. Toshkent . G'afur G'ulom. 1969. b-187.
2. Jovliyev J. "Qo'rqma". Roman. Toshkent. Nihol. 2020. B-130.
3. Obidjon Anvar. "Yengilmas Meshpolvon". Toshkent. Ziyo nashr. 2019. B-46.
4. Э.А.Бегматов. Узбек тили антропонимикаси. Узбекистан Республикаси Фанлар академияси, "Фан" нашриёти. - Тошкент. 2013. b-35
5. Chobanov M.N. Osnovi azerbaydjanskoj antroponimiki. Baku. 1984. b-28.
6. Хаитов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/5. – С. 49-52.
7. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
8. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
9. Khoja o'g'li T., Ahmadovich K. H. Advanced Characteristics of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 1-4.
10. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 140-144.
11. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 306-309.
12. Axmadovich X. X. et al. ENG QADIMGI MA'RIFIY YODGORLIKLARNI O 'RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 281-285.
13. Ҳайитов Х. А. ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ ХАЛҚ ЛАТИФАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 679-687.